

**TURLI TIL O'RGANISH GIPOTEZALARIDA XATOLARGA BO'LGAN
YONDASHUV HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi

*Farg'ona davlat universiteti, Nemis va fransuz tillari kafedrasini
mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

Mustafoyeva Saidaxon Juma qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada turli til o'rganish nazariyalarida xatolarga bo'lgan yondashuv haqida ayrim mulohaza va fikrlar keltirilgan. Xato, o'rganuvchanlik, mental fikrlar kabi tushunchalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nemis tili, xato, mental fikrlash, o'rganish jarayoni, o'qitish, til o'rganuvchi.

Abstract: The article presents some comments and ideas about the approach to errors in different theories of language learning. Concepts such as error, learning, and mental thoughts are explained.

Key words: German language, error, mental thinking, learning process, teaching, language learner.

KIRISH. Til egallash sekvenzlari xorijiy tillarni o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ular tilning ma'lum sohalarini egallashga xizmat qiladi. Bu egallash sekvenzlari albatta boshdan keshirish kerak bo'lib, faqat ba'zidagina ulardan sakrab o'tish mumkin xolos. Shu sababdan ham til o'rganuvchilar qayta-qayta xatolarga yo'l qo'yishi mumkin, lekin o'qituvchi bu holatga sabr bilan yondoshishi, til o'rganuvchilar tomonidan strukturalar anglab olinishi va to'g'ri qo'llanilishini kutishi lozim. Bu esa o'rganuvchanlik va o'rganuvchanlikning asosiy gipotezasi hisoblanadi.

ASOSIY QISM

O'rganuvchanlik va o'rganuvchanlikning asosiy gipotezasida til strukturasini egallashning ma'lum belgilangan ketma-ketligi borligini, unga ta'sir qilib bo'lmashligini hamda uni o'zgartirish mumkinmasligini talab etadi. Shundagina o'rganish jarayoni samarali kechadi, tilning keyingi o'rganish stadiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Buning uchun til o'rganuvchilarda mental fikrlashga tayyorgarlik darajasini oshirish talab etiladi.

O'qituvchilardan tilni egallash bilan bog'liq tadqiqotlar bilan tanishib borishi lozim. Darslik mualliflari ham o'z navbatida o'qub material mazmunini anashunday sekvenzlilar bilan ko'rgazmali holda tasvirlashga harakat qilishadi. O'qituvchi sifatida til o'rganuvchilarning qaysi til egallash sekvenzlilar aktual o'rganish sekvenzlilar sifatida baholanishi mumkinligini bilish lozim.

Til egallash gipotezalari birinchi tilni egallashdagi xatolar chet tillarni o'rganishda ham uchrashi haqida ko'p firklar berishadi. Lekin quyidagi xato oldingi keltirilgan sabablardan farq qiladi.

Quyidagi xatoni tasvirlang. Bu xato shakli qanday yuzaga kelishi mumkin?

Ich *trinkst Milch.

Yuqorida keltirilgan gap norveg-nemis bolasi tomonidan aytilgan bo'lib, bolaga ko'p marta *Spielst du schoen? Hast du Hunger? Trinkst du Milch?* kabi savollar bilan gapirishga undalgan. Bola nemis buvisi bilan telefonda gaplashish jarayonida o'zining nima qilayotgani haqida shu tarzda javob bergan. Berilgan savoldagi *du trinkst* shaklidan foydalangani ko'rinib turipti. Bunday holatni ko'p o'qituvchilar o'z darslarida kuzatgan bo'lishi tabiiy. Til o'rganuvchilar dars jarayonida qaysi jummalarni ko'p eshitishgan bo'lsa, gapirish jarayonida ham aynan shu jummalarni qo'llab yuborishadi.

Bu jarayon o'rganuvchilar variativligi yoki o'rganuvchi tili deb nomlanadi. O'rganuvchilar variativligi belgilangan nazariy til normasidan sistematik og'ishuv hisoblanadi. U individual til egallash holatiga bog'liq.

Xorijiy tillarni o'rganishda til o'rganuvchilar o'zlarining birinchi tillari bilan bog'liq bilimlari, gipotezalari yordamida xorijiy tildagi hodisalar haqida tasavvur qiladilar. Bu holat esa xorijiy tillarni o'rganish jarayonida to'lib boradi va tilni egallash jarayoni o'zgaradi. O'qituvchi o'rganuvchilar variativligini tahlil qilar ekan, har bir til o'rganuvchining tilda individual ilgarilash tamoyiliga ega ekanligini ko'rishi mumkin. Shunday qilib xatolarning kelib chiqish sabablarini bilib olish hamda aktual til egallash sekvenzlarini rivojlantirish mumkin.

Tillararo gipotezasi identifikatsiya gipotezasining yanada rivojlanish bosqichi sifatida qayd etilishi mumkin bo'lgan gipoteza hisoblanadi. Bu gipotezaga ko'ra til o'rganuvchilar birinchi va o'rganish rejalashtirgan tillar o'rtasida o'zlarining ikkala tilda ham uchramaydigan hodisalarni o'ylab topishadi.

Tillararo gipoteziyasiga ko'ra til o'rganuvchilar qisman xatoga yo'l qo'yib gapiradilar, ammo bu xato keyinchalik o'zgartirish ham qiyinchilik tug'diradi.

Til o'rganuvchilar variativligi bu strukturalarni to'g'ri emasligini dalillaydi. Bu holat normal bo'lib, buni til o'rganuvchilarning dangasaligi sifatida baholamslik lozim. O'qituvchilar bu holatga salbiy munosabatda bo'lmasdan, xato yo'l qo'yilayotgan strukturalarni ajratib olishi va ularni bartaraf etishga harakat qilishi lozim. Xatoga yo'l qo'yilayotgan strukturalarni to'g'ri farqlab olish yordamida o'qituvchi o'rganib bo'lingan mavzularga qaytmaslik, hamda yaxshi o'rganilmagan mavzularga ko'proq to'xtalish imkoniga ega bo'ladi.

Xorijiy tillarni o'rganishda albatta birinchi tilning ta'siri sezilarli darajada ko'zga tashlanadi.

Aytaylik quyidagi uchta gap keltirilgan:

Die Mond ist aufgegangen.

Das Mond ist aufgegangen.

Mond ist aufgegangen.

Bu yerda aytishimiz mumkinki, birinchi va ikkinchi gapda til o'rganuvchilar artiklni xato qo'llashgan, chunki nemis tilida *Mond* so'zi mujskoy rodga mansub. Uchinchi gapda esa artikl ishlatilmagan. Bu yerda xato til o'rganuvchilarning so'z boyligini yaxshi o'zlashtirmaganliklariga bog'liq. Ehtimol, bu xatolar til o'rganuvchilarning birinchi tili sababli kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin. Birinchi chet tili fransuz tili bo'lgan til o'rganuvchi fransuz tilida oy so'zi *la lune* deyilishi va uning jenskiy rodga mansubligiga, uchinchi gapni tuzgan til o'rganuvchi ingliz tilida otlarning bunday rodlarga ajratilmasliga asoslangan holda shu gapni tuzgan bo'lishi mumkin.

Tildan-tilga ko'chiriladigan bunday ta'sirlar *transfer* deb yuritiladi. Agar tildagi bunday ko'chirishlar salbiy bo'lib, tilda xato qilishga sabab bo'lsa, uni interferensiya deb nomlanadi.

Xususan, o'zbek olimi J.Jalolov ham bu haqda shunday fikr bildiradi: «Til tajribasini hisobga olish deganda, o'quvchi shu kungacha o'zbek, rus, chet til (ingliz, ispan, nemis yoki fransuz tili) dan olgan bilim, ko'nikma va malakasining hozir o'rganayotgan chet til materialini o'zlashtirishga salbiy (interferensiya) yoki ijobiy (transpozitsiya/fatsilitasiya) ta'siri tushuniladi. Masalan, chet tildagi «artikl» atalmish grammatik hodisani o'rgatish chog'ida, uning o'zbek tilida mavjud emasligi, mazkur tushuncha ongda yangilik sifatida shakllantiriladi. Oqibatda o'quvchi til tajribasi endi chet tildagi «yangilik» bilan boyiydi»¹⁷. Ushbu «yangilik» esa til o'rganuvchilar oldida muammo sifatida ko'ndalang bo'ladi. Shuning uchun ham ko'p til o'rganuvchilar grammatik mavzularni o'rganishni yoqtirishmaydi. Zotan «...grammatika biroz yoqimsiz, qiyin va quruq materiya kabidir»¹⁸. Lekin «...artikllarni to'g'ri qo'llay olish nemis tili grammatikasining qolgan ko'p qismi uchun ham to'g'ri yo'l ochishga yordam beradi»¹⁹.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, oldindan o'rganilgan til boshqa xorijiy tilni o'rganish hamda muloqot jarayonida ba'zan o'rganishga yordam beruvchi, ba'zan esa halaqit beruvchi omil sifatida namoyon bo'lar ekan. Bu holatdan esa kontrastivlik gipotezasi kelib chiqadi.

Kontrastivlik gipotezasida yangi tilni yomon o'rganilishi yoki qiyin o'rganilishi haqida gap boradi. Bu holat asosan birinchi va o'rganilayotgan til o'rtasida yirik strukturaviy farq bo'lganda ko'proq ko'zga tashlanadi. Bu farq qanchalik kuchli bo'lsa, shuncha ko'p interferensiya holatlari ko'zga tashlanadi. Bunday holatlar esa tillarni o'zaro qiyoshlash yordamida filtrlanadi hamda tushuntiriladi. Kontrastivlik gipotezasiga qarshi o'laroq, tillardagi o'xshash strukturalar ham avtomatik tarzda tilni muvaffaqiyatli o'rganishga

¹⁷ Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi, 2012. – 6 b.

¹⁸ Mackowiak K. Grammatik ohne Grauen: Keine Angst vor richtigem Deutsch. –München: Origin. 1999. – 8 S.

¹⁹ Sahel S. Kasus. Kurze Einführungen in die germanistische Linguistik. –Heidelberg: Universitätsverlag Winter. 2014. – 17 S.

xizmat qilmaydi. Bundan tashqari har doim ham xatoni birinchi til bilan bog'lash to'g'ri fikr emas²⁰.

Kontrastivlik gipotezasidan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, bu yerda eng muhim xususiyat o'qituvchining o'z til o'rganuvchilari birinchi til sifatida qaysi tilni egallaganlarini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Kontrastiv tahlillar birinchi hamda o'rganilayotgan til o'rtasidagi farqli tomonlarni oydinlashtiradi hamda unga ko'ra til o'rganuvchilar o'z xatolarini ba bilim, ko'nikma, malakalarini qay darajada ekanliklarini bilib oladilar.

XULOSA

Xulosa sifatda shuni aytish kerakki, kontrastivlik gipotezasi xato haqiqatdan ham birinchi hamda o'rganilayotgan chet til o'rtasida yuzaga kelyaptimi degan savolga javob topishga ham sharoit yaratib beradi. Lekin albatta bu gipoteza va tahlillar xatolarni yakuniy baholashga xizmat qilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi, 2012. – 434.
2. Mackowiak K. Grammatik ohne Grauen: Keine Angst vor richtigem Deutsch. – München: Origin. 1999. 120 S.
3. Sahel S. Kasus. Kurze Einführungen in die germanistische Linguistik. –Heidelberg: Universitätsverlag Winter. 2014. 104 S.
4. Ballweg S. und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. 204 S.

²⁰ S.Ballweg und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. S. 36